



O'zbek xalq dostonlari

"SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK
KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2006

Aytuvchi: **Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li**

Nashrga tayyorlovchilar:

To'ra Mirzayev va Zubayda Husainova

T a h r i r h a y ' a t i:


Omonulla Yunusov (hay'at raisi), **Ahror Ahmedov** (hay'at raisi o'rinnbosari), **Mamatqul Jo'rayev**, **Erkin Malikov** (hay'at kotibi), **To'ra Mirzayev**, **Abiir Musoqulov**, **Muhammadali Qo'shmoqov**, **Shomirza Turdimov**, **Ibodulla Shoymardonov**

R a s s o m:
Temur Sa'dullayev

Go'ro'g'li: O'zbek xalq dostonlari / Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o'g'li; Tahrir hay'ati: O. Yunusov, A. Ahmedov, M. Jo'rayev va boshq./ Rassom T. Sa'dulla. — T.: Sharq, 2006. — 448 b.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari yuzga yaqin xilma-xil mazmundagi asarlarni o'zida bir-lashtirgan ulkan silsiladir. Xalq baxshilari bu turkumga kiruvchi dostonlarni sevib kuylab kel-ganlar. Ushbu jildga Rahmatulla shoir Yusuf o'g'lidan yozib olingan 27 doston kiritildi. Ularda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti, ozodlik o'lkasi — Chambil shahrining bunyod etilishi, asrandi farzandlar — Hasanxon va Avazxonlarning Chambilga keltirilishi, ularning bahodirliklari turli-tuman sarguzashtli voqealar girdobida tasvirlanadi. Dostonlar qahramon va sevimli yor sadoqati, ota-onva farzand burchi, birodarlik va do'stlik, ona yurtga muhabbat masalalaridan bahs etadi. Har bir doston badiiy mukammalligi va jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb eta oladi.

BBK 82.3(5U)



AVAZXON



ОГАРДАН МАХСУС САЛОНДАР



Ammo roviyonи axbor, noqiloni osor, muhaddisonи оston, doston, bo'ston va hushi chinon, xirmonи suxon, o'tgan zamonda bo'lган bir necha hangomachi baxshilar rivoyat qilishib ayturlarki, Turkmanga Og'alibek xon bo'ldi. Undan keyin Jig'alibek xon bo'ldi. Undan keyin tilla jig'asi boshida, qirq yigitи qoshida, Xoldor mahram yonboshida Go'ro'g'libek sulton bo'ldi. Go'ro'g'libek turkman yurtiga sulton bo'lib, Ko'hi Qofdan Misqol parini, Irambog'dan Og'a Yunus parini, Hindistondan Gulnor parini olib kelib, davron surib, Vayangandan Hasanxонни keltirib, o'ziga o'g'il qilib, qirq yigitiga kosagul qilib, qirq yigit bilan mayxonasida may ichib, kayf-safo qilib yurar edi.

Kunlardan bir kun Chambilga bir qari boboy baxshi kelib, har kimning mehmonxonasiqa qo'nib, dos-ton aytib, pul yig'ib yura berdi. O'zi ham shu vaqtлari Chambilda uch yuz oltmis mehmonxona, bir yuz yetmis boloxona bor edi. Baxshi boboning kelganini Go'ro'g'li sulton ham eshitib: "Ul baxshi bizning mehmonxonaga ham kelib, bir hangoma qilib bersa", — deb o'ylab yurdi. Oradan ko'p kun o'tib, baxshi boboning navbatи yetib, Go'ro'g'li sultonning mehmonxonasiqa kelib tushib, kechasi Go'ro'g'li sulton katta ziyoфatlar aylab, bir boshqasi o'tirish tashkil qildirib, bir yoqdan may suzilib, aliyor aytilib turdi. Shunda baxshi bobo gulxanning labida o'tirib, elu yurtning egasi, mamlakatning chegasi Sovut-to'nning yoqasi Go'ro'g'li sultonning shashti qaytmasin, balki davlati bundan ham ziyoda bo'lsin, deb bir piyola mayni olib ichib turib, do'mbirasining qulog'ini chingillatib toblab, torlarini tarang qilib, avval Go'ro'g'li sultonning shu o'tirishining sha'niga qarab, bir terma aytib, baxshi bobongiz nima derdi:

Majlis ahli xurram bo'lar,
Majlisning bo'lbuli bo'lsa.
Soqilarga saqo bo'lган —
Soqi kosaguli bo'lsa.
Bu majlisni baland ko'rдim,
Barchani mayga band ko'rдim.
Boshqalarga pisand bo'lsa,
Menga ham ha-pisand ko'rдim.
Shunda Avaz sulton bo'lsa.
Sulton ekan, bunda sulton,
Sulton desa, toza sulton,
Haybatli tarafsiz polvon,
Hay attang-a bir kamligi —

Baxshi bobongiz yana Avazxonni ta'rif aylab, nima dedi:

Bo'y desang bo'y, o'y desang o'yi bor,
Bodom qovoq, muloyim xuy anda bor,
Qirq yigitlar, arg'umoqlar senda bor,
Farzand bo'lsa senga Avaz, Go'ro'g'li.

Talab aylab xizmatingga keltirsang,
Qirq yigitman sozu suhabat qildirsang,
Uning qo'liga tilla kosa oldirsang.
Gul bo'lsa majlisiga Avaz, Go'ro'g'li.

Barcha tursa jon deb chorlaganicha,
Kiygizsang zARBobdan to'nlar taniga,

Yo'qdir bunda Avaz o'g'lon,
Bu majlislar bir cho'liston,
Bol Avazdan xoli bo'lsa.
So'zlab berar menday baxshi,
So'z bo'lar majlisning naqshi,
Avazxonsiz majlisingdan,
Sahrodagi soya yaxshi,
Salqingina hili bo'lsa,
Bu so'zimni olmang og'ir,
Baxshi bobong emas sag'ir,
Avaz tuyg'un, Avaz olg'ir,
Ul Go'ro'g'li o'g'li bo'lsa.

Bunday oliv majlisingning sha'niga,
O'ttada o'tirsa Avaz, Go'ro'g'li.

Avaz dedim, Avaz behisht g'ilmoni,
Ko'rganda bahr olar odamning joni,
Qirq yigitning suhabat tuzgan zamoni,
May uzatsa anda Avaz, Go'ro'g'li.

Baxshi bobong so'z kelganda so'zlaydi,
Yaqin emas, yiroqlarni ko'zlaydi,
Avazning bo'lishin shunda tilaydi,
Undan keyin kelib doston kuylaydi.



- Lituz.com
Elektron kitoblar

**To'liq qismini Shu tugmani
bosish orqali sotib oling!**